

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 4



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№4 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-4>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурад Мансур Бобомурадovich
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Sabirova Umida OLIY TA'LIM SIFATINI MONITORING QILISH MODELI.....	5
2. Fayzieva Farogat MA'LUMOTLAR TO'PLASH JARAYONI SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHI SIFATIDA.....	13
3. Mardiyeva Malika XX-XXI- ASRLARDA ISLOM MADANIYATIDAGI GENDER MUNOSABATLARI.....	23
4. Махмудова Малика ОПТИМИЗАЦИЯ МЕХАНИЗМОВ СОЦИАЛЬНОЙ ПОДДЕРЖКИ ДЛЯ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ ДОМАШНЕГО НАСИЛИЯ В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	30
5. Tagaymutatova Gulchehra RAQAMLI TEXNOLOGIYANING INNOVATSION OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI.....	38
6. Shukurova Sevara OIV EPIDEMIYASI BILAN KURASHDA KOMPLEKS YONDASHUV TIZIMI.....	44
7. Razzakova Nargis JAMIYATNI MODERNIZATSIYALASH JARAYONIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING O'ZGARISH DINAMIKASI.....	51
8. Samadov Shohzod JAMIYATDA IJTIMOIIY TRANSFORMATSIYALASHUV RIVOJIDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING AHAMIYATI (sotsiologik yondashuv).....	59
9. Kadirov Mirsulton IJTIMOIIY-MADANIY SOHADAGI MUAMMOLARNI HAL QILISHDA DAVLAT HOKIMIYATI VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARI.....	66
10. Kasimov Abdumavlon MAHALLIY BUDJET IJROSI USTIDAN DEPUTALIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING IJTIMOIIY-SIYOSIY OMILLARI.....	80
11. Usmonova Rohila AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBASI.....	87
12. Samadov Shohzod YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY TRANSFORMATSIYALASHUV TENDENSIYALARI (Fuqarolik jamiyati institutlari misolida).....	95

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


Samadov Shohzod,

О‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ma’sul xodimi,

Mustaqil izlanuvchi

e-mail: shaxzodsamadov9419@gmail.com

JAMIYATDA IJTIMOY TRANSFORMATSIYALASHUV RIVOJIDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING AHAMIYATI (sotsiologik yondashuv)

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14187676>

ANNOTATSIYA

Maqolada jamiyatda ijtimoiy institutlar, xususan, fuqarolik jamiyati institutlari, uning shakllari faoliyatidagi o‘zgarishlar, ularning transformatsiyalashuvi jarayoniga nisbatan turlicha qarashlar asosida ta’riflar, shu nuqtai nazardan, avvalo, mutaxassislar tomonidan ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini, ilmiy konseptual asoslari, ushbu jarayonda jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni, xususan, fuqarolik jamiyati va uning shakllariga xos o‘zgarishlarning davlat va jamiyat boshqaruviga ta’siri tadqiq etilgan. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlari transformatsiyalashuvining davlat va jamiyat hayotida aks etishi holati, jamiyatdagi fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy munosabatlardagi faolligi, ta’siri va fuqarolar bilan hamkorligi darajasini oshirishga qaratilgan yaxlit yondashuvga oid qarashlar o‘z ifodasini topgan. Ayni vaqtda, bunday tadqiqotlar muayyan davlat uchun siyosiy, huquqiy, ijtimoiy jihatdan rivojlanish tendensiyalarini o‘z ichiga olishi hamda o‘rta, yaqin istiqbolga mo‘ljallanishi eng asosiysi, ijtimoiy transformatsiya jarayonlarining evolyutsion tarzda kechishini ta’minlab berishi ilmiy jihatdan o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati institutlari, ijtimoiy munosabatlar, transformatsiya, modernizatsiya, takomillashtirish, ijtimoiy tizimi, ijtimoiy ong, sotsiologik tahlil, doimiylik, muntazamlilik, sinergetika, ijtimoiy institutlar, transformatsiya, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, evolyutsiya, ta’sir jarayonlari, davlat, jamiyat, fuqarolar, ijtimoiy ong shakllari, siyosiy mafkura, sotsiologik yondashuv.

Самадов Шохзод,

Сотрудник Олий Мажлиса Республика Узбекистан,

независимый соискатель

e-mail: shaxzodsamadov9419@gmail.com

ЗНАЧЕНИЕ ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В РАЗВИТИИ СОЦИАЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В ОБЩЕСТВЕ (социологический подход)

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются социальные институты в обществе, в частности институты гражданского общества, изменения в деятельности его форм, определения, основанные на различных взглядах на процесс их трансформации. Дается теоретическое осмысление

содержанию и сущности гражданского общества, соответствующие концептуальные основы социальных отношений. Рассмотрены вопросы влияния изменений и свойственных форм на государственное и общественное управление. В статье нашли отражение тема трансформации институтов гражданского общества в жизни государства и общества, а также обобщение различных взглядов в рамках целостного подхода. Автор предпринял попытку изучения вопросов повышения уровня активности, влияния и сотрудничества институтов гражданского общества в общественных отношениях. При этом научно изучено, что подобные исследования включают политические, правовые и социальные тенденции развития конкретной страны и нацелены на средне- и ближнюю перспективу, а главное, обеспечивают эволюцию процессов социальных трансформаций.

Ключевые слова: институты, социальные отношения, трансформация, модернизация, эволюция, общество, граждане, политическая идеология, социологический подход.

Samadov Shohzod,
Responsible officer of the Oliy Majlis
of the Republic of Uzbekistan,
Independent seeker
e-mail: shaxzodsamadov9419@gmail.com

THE SIGNIFICANCE OF CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS IN THE DEVELOPMENT OF SOCIAL TRANSFORMATION IN THE SOCIETY (sociological approach)

ABSTRACT

The article examines social institutions in society, in particular civil society institutions, changes in the activities of its forms, definitions based on different views on the process of their transformation. The article provides a theoretical understanding of the content and essence of civil society, the corresponding conceptual foundations of social relations. The issues of the influence of changes and inherent forms on state and public administration are considered. The article reflects the theme of the transformation of civil society institutions in the life of the state and society, as well as a generalization of various views within the framework of a holistic approach. The author attempted to study the issues of increasing the level of activity, influence and cooperation of civil society institutions in public relations. At the same time, it was scientifically studied that such studies include political, legal and social trends in the development of a particular country and are aimed at the medium and short term, and most importantly, ensure the evolution of social transformation processes.

Key words: institutions, social relations, transformation, modernization, evolution, society, citizens, political ideology, sociological approach.

KIRISH

Har bir xalq o'z davlatchiligini barpo etar ekan, bu ijtimoiy jarayon o'ziga xos tarzda bir qancha omillarga bog'liq holda rivojlangan, yangicha ko'rinishga ega bo'lib kelgan. Bu, o'z navbatida, fuqarolik jamiyati institutlari va ularning faoliyatiga bevosita bog'liq tarzda amalga oshirilgan. Mazkur muammo borasida ko'plab ilmiy-bahslar mavjud bo'lib, o'rganilgan manbalarning aksariyati fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi hamda ularning o'zgaruvchanligi ko'rsatkichlarini aniqlashni taqozo etadi.

METODOLOGIYA

Jamiyatning asosiy institutlarining o'zgaruvchanligi bilan bog'liq bu jarayonlar o'z davlatchiligiga ega bo'lgan har bir jamiyatning rivojlanishi borasidagi asosiy ilmiy-nazariy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu ilmiy muammoga bag'ishlangan tadqiqotlarning birida quyidagicha fikr yuritilgan "Jamiyat va davlat munosabatlari shakllanishida demokratiya tamoyillarini joriy etishda ishtirok etayotgan fuqarolik jamiyati institutlari, qachonki aholi asosiy qismining manfaatlari va ijtimoiy maqsadlarini ifoda etishga qodir bo'lmas ekan, ularni bu jamiyat

davlat siyosiy munosabatlaridagi oʻrnini toʻla maʼnoda samarali deb hisoblash mumkin emas. Shuningdek, ularning legitimlik darajasini olishi aholining koʻz oʻngida jamiyat oldidagi muammolarni qanchalik hal etish vositalariga egaligi, uning natijasi samarasiga bogʻliqdir” [1, – C.59-67].

ASOSIY QISM

Oʻrganilgan ilmiy adabiyotlarda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatidagi oʻzgarishlar, ularning jamiyat va davlat hayotida kechadigan ijtimoiy transformatsiyalashuvi jarayoniga nisbatan turlicha qarashlar asosida taʼriflar berilgan. Shu nuqtai nazardan, avvalo, mutaxassislar tomonidan ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini, ilmiy konseptual asoslarini tadqiq qilish diqqat markazda turishi tabiiy. Bu jarayonda fuqarolik jamiyati institutlaridagi oʻzgarishlarning davlat va jamiyat boshqaruviga taʼsirini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Bunda ijtimoiy tizimning barqarorligi imkoniyatlarini aniqlash, uning trayektoriyalarini belgilash imkoniyatlari shakllanadi. Zamonaviy jamiyat qurish va ularning keyingi rivojlanish istiqbollari belgilashda fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyatning ijtimoiy transformatsiyalashuvida tutgan oʻrni, transformatsiyalashuvi sabablari, taʼsiri natijasida ijtimoiy-siyosiy oqibatlarini tadqiq etish – davlat boshqaruvining izchilligini taʼminlashga xizmat qiladi. Zero, fuqarolik jamiyati institutlarning fuqarolarning ijtimoiy faolligi pozitsiyasi natijaviyligidir.

Fuqarolik jamiyati institutlarining transformatsiyalashuvini oʻrganish davomida uning sabablari, mohiyati, evolyutsiyasi va oqibatlarining aniq bir mezon asosida tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Zero, bu jarayon davlat boshqaruvini va uning asosiy institutlari negizida sodir boʻlishini doimo hisobga olish zarur. Chunki fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va jamiyatning ijtimoiy hayotidagi ahamiyati – davlat boshqaruvining hamda siyosiy tizimini mustahkamlash, ijtimoiy transformatsiyalash omili bilan bogʻliq ekanligida koʻrinadi.

Sotsiolog olim I.A.Bikovning taʼkidlashicha “binobarin, har qanday jamiyat shunchaki institutlarga muhtojdir, bu jarayon, ayniqsa, modernizatsion jarayonlar avj olishi natijasida texnologik taraqqiyotni nazorat qilish va barqaror rivojlanishni taʼminlashga qodirligi bilan izohlanadi” [2, – C.200]. Bunda muallif oʻzgarayotgan jamiyatlarda yangi gʻoyalar, qarashlar shakllanishini (ijtimoiy transformatsiya) hisobga olgan holda ularni tartibga solish mexanizmlari zaruriyatini nazarda tutadi. Fuqarolik jamiyati institutlarining oʻzgarishi, transformatsiyalashuvi bilan bogʻliq aksariyat qarashlarda jamiyatda ijtimoiy munosabatlar bilan bir qatorda, siyosiy tizimning oʻz maqsad va vazifalarini bajara olmasligi bilan bogʻliq qarashlar yetakchi oʻrin egallaydi. Zero, siyosiy institutlarning transformatsiyalashuvi, uning oʻzgarish va paydo boʻlish sabablarini aniqlash asosida davlat boshqaruvining qaysi obyektlarida sodir boʻlishiga oydinlik kiritish muhimdir. Chunki transformatsiyalashuv – ijtimoiy-siyosiy ehtiyoj sifatida mavjud boshqaruvning samarali yoki samarasiz faoliyatini koʻrsatib berishning koʻrsatkichi hamdir.

Ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy transformatsiya – ijtimoiy tizimning immanent umumiy sifat xususiyatining oʻzgarishi boʻlib, tizim bir strukturaviy tuzilmadan rivojlangan barqaror tizimga almashadi. U tizimning butun mazmun-mohiyatidagi oʻzgarish, shaxs va institutlarning tabiiy rivojlanish qonuniyatlari asosida maqsadga yoʻnaltirilgan faoliyati oʻzgarishi [3, – B.125] sifatida talqin etiladi.

Boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyati institutlarining yangi ijtimoiy jarayonlar (munosabatlar)ni tartibga solish, ularga moslashuvchanlik darajasi bilan ifodalasa boʻladi. Ayrim mutaxassislar fuqarolik jamiyati institutlari transformatsiyalashuvini davlat va jamiyatdagi siyosiy munosabatlarning qanday boʻlishi kerakligini belgilovchi omillar sifatida eʼtirof etadi [4, – C.59-67]. Demak, fuqarolik jamiyati institutlari transformatsiyalashuvini aynan davlat va jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muhitga nisbatan tadqiq etish – uning ijobiy va salbiy xususiyatlarini aniqlashda yordam beradi.

Shuni alohida aytish kerakki, fuqarolik jamiyati institutlari transformatsiyalashuvini tadqiq etish bilan bogʻliq asosiy muammolar bevosita obyektiv jarayonlar (davlat boshqaruvining ayrim manfaatlarga xizmat qilishi, korrupsiya, siyosiy partiyalar va NNTlar sust faoliyati, fuqarolarning siyosiy jarayonlarda sust ishtiroki va hokozolar) bilan bogʻliqdir. Bugun fuqarolik jamiyati institutlarining transformatsiyalashuvi, birinchi navbatda, davlat boshqaruvining yangi ijtimoiy,

siyosiy munosabatlarni tartibga solish va boshqarish imkoniyatlari hamda mexanizmlarini rivojlantirish fonida kechmoqda. Ma'lumki, fuqarolik jamiyati institutlari jamiyatning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining asosini tashkil etadi. Ularning o'zgaruvchanligi va moslashuvchanligi masalasi yangi jamiyat barpo etish yoki o'tish davriyligi jarayonida yana-da yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu jarayon transformatsiyalashuv deb atalib, sotsiologik fanlarda u bilan tranzitologiya fani shug'ullanadi. Tranzitologiya – bu qiyosiy siyosatshunoslik doirasida paydo bo'lgan tadqiqotlar hamda avtoritar bo'lgan mamlakatlarning demokratik munosabatlarga kirishuvini o'rganishga bag'ishlangan sohasi hisoblanadi [5, – C.9]. Ushbu yo'nalish turli jamiyatlarning demokratlashuvi va liberallasuvi, ular institutlarning demokratik munosabatlarga kirishuvi yoki muvaffaqiyatsizligi holatlarini o'rganishda muhimdir.

Jamiyatda institutlarni o'zgartirishning ikkita varianti mavjud. Birinchisi, institutsionallashtirilgan o'zaro ta'sirlar subyektini (texnologik jihat) farqlash bilan bog'liq. Ikkinchisi, institutsionallashtirilgan aloqani qayta tartibga solish, o'zaro munosabatlarning asosiy tamoyillari va normalarini o'zgartirish (tartibga solish – me'yoriy jihat). Shu bilan birga, institutsional innovatsiyalar ham “institutlar bozori” orqali ham, “byurokratik bozor” orqali ham real munosabatlarga moslashtirilishi mumkin.

Ijtimoiy hayotning zamonaviy institutsional tuzilmasidagi o'zgarishlarning asosiy istiqbolli tendensiyalari, ilg'or jamiyatlar tajribasi ko'rsatganidek, quyidagilardan iborat: siyosatning oshkorligi, fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan o'z funksiyalarini amalga oshirishning yaqqol namoyon bo'lishi; ko'plab ijtimoiy jarayonlar va institutlarni virtualizatsiya qilish; an'anaviy siyosiy iyerarxiyalarning qisman tekislanishi va siyosiy institutlar tarmoq arxitekturasining tarqalishi. Institutsional tuzilmalar doirasida ham, institutlararo darajada ham “hamkorlik strategiyasini” ishlab chiqish; sotsial-madaniy omillarning siyosiy institutlarning tuzilishi va faoliyatiga ta'sirining kuchayishini nazarda tutadi. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning institutsional muhiti, ishtirokchilar o'rtasidagi chegaralar va shakllarni tashkil etuvchi qoidalar, me'yorlar va sanksiyalar to'plami sifatida tushuniladi. Jamiyatdagi ijtimoiy qoidalarni demoformallashtirish kleyeptelizm, klanchilik, korporatizmning kuchayishiga, tranzaksiya xarajatlarining o'sishiga, retsept va nazorat mexanizmining disfunktsiyasiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy munosabatlarning doimiy tadqiq etishga zarurat seziladi.

Zamonaviy jamiyatdagi fuqarolik jamiyati institutlari odatda “demokratik” o'tish holatiga mos keladi, ammo tahlil shuni ko'rsatadiki, tranzit natijasida ularning oraliq holati doimiy bo'lib, kelajakda takrorlanishi mumkin. Shu bilan birga, mamlakatimiz siyosatining institutsional tuzilishini o'zgartirishning aniq vektorini aniqlash juda qiyin. Shu munosabat bilan bu yerda O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarida kechadigan modernizatsiya jarayonlarining to'rtta asosiy yo'nalishi ko'rsatilgan. Yana bir sotsiologik qarashga ko'ra, fuqarolik jamiyati institutlarining transformatsiyalashuvi an'anaviy jamiyatlarning o'zgarishi asosida kechadi. “Jamiyatlarning an'anaviylik va zamonaviylik munosabatlarida o'zgarib borishi masalasi va bunda ularning asosiy fuqarolik jamiyati institutlari muayyan davlat taraqqiyoti uchun ahamiyatli tadqiqot hisoblanadi va bunda yuqoridagi munosabatlar doimiylik, bir xillik ko'rinishiga ega bo'lmasligi bilan bog'liqdir” [6, – C.4]. Bunda ikki tushunchani to'g'ri anglash muhimdir. Aslida an'anaviy jamiyat – ishlab chiqarish va turmush sharoiti cheklangan qonuniyatlar asosidagi, shuningdek, bir turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan, shaxs manfaatlari qadriyatlar va qat'iy o'rnatilgan qoidalar asosida boshqariladigan jamoaviy uyushmadir [7, – P.4-16]. “Zamonaviy jamiyat deganda keng ma'noda jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalarning turli ta'sirlar, omillar asosida o'zgarishi, tor ma'noda esa qishloq xo'jaligidan industrial jamiyatga o'tish asosidagi jamoaviy birlik tushuniladi” [8, – C.219-220]. Bundan ko'rinadiki, muayyan bir davlat va jamiyat an'anaviy institutlarining qanchalik faolligi ularning o'zgaruvchanligida alohida o'rin egallaydi. Yuqoridagi tushunchalar o'ziga xos uzoq evolyutsiyaviy bosqichni bosib o'tgan. Bu fuqarolik jamiyati institutlariga ham birdek tegishli jarayon hisoblanadi.

Aslida, fuqarolik jamiyati institutlarining an'anaviy hamda zamonaviy jamiyat barpo etishdagi o'rni, ularning transformatsiyalashuvi bilan bog'liq ilmiy qarashlar XX asrning 50-60-yillariga to'g'ri kelsa-da, ammo unga tegishli bo'lgan ilmiy qarashlar XIX asrda ijod qilgan olimlar,

xususan, M.Veberning Yevropa rivojlanishi konsepsiyasida (oqilona xatti-harakatlar asosida tashkil etilgan an'anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o'tish nazariyasi) [9, – C.29], E.Dyurkgeymning mehnat taqsimotiga asoslangan “mexanik birdamlik” jamiyatidan “organik birdamlik” jamiyatiga o'tish nazariyalarida ham asoslab berilgan. Har bir davlat o'zining rivojlanish darajasi turli-tumanligi bilan farqlanadi. Bu jarayon fuqarolik jamiyati institutlariga ham tegishli. Ammo, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy fanlarda fuqarolik jamiyati institutlari transformatsiyasining qay yo'nalishda kechishini o'rganish (doimiy) masalasi muhimdir.

AQSHlik olim N.Smelzer buni quyidagicha ifodalaydi: “institutlar juda kamdan-kam hollarda uzoq vaqt davomida barqarorligini saqlab qoladi, buning asosiy sababi ularga ta'sir etuvchi sharoitlar hamda ularga ta'sir qilish doimiy ravishda o'zgarib turadi” [10, – C.79]. Institutlar transformatsiyasiga yoki tranzitologiyaga doir tadqiqotlarning shakllanishi (rasmiiy ravishda) 1970-yilda D.Rastou tomonidan “Comparative Politics” jurnalida e'lon qilingan “Demokratiyaga o'tish: dinamik model tomon yo'l” tadqiqoti bilan boshlangan [11, – C.5-15].

Institutlarning (fuqarolik jamiyati institutlari ham) transformatsiyasi bilan bog'liq tadqiqotlar umumiy 3 yo'nalishga ajratiladi:

1. Jamiyatda siyosiy elitaning o'rni va roli masalasi;
2. Institutlarga xos tadqiqotlar va institutsional o'zgarishlar dinamikasiga oid tadqiqotlar;
3. Davlatlarning ijtimoiy, siyosiy hayotidagi o'zgarishlarga doir tadqiqotlar [12, – C.64-81].

Ma'lumki, zamonaviy jamiyat fuqarolik jamiyati institutlariga xos qarashlar talaygina. Bu davr nazariyotchilari 2 guruhga – konservatorlar va liberallarga bo'linadi. Konservativ yo'nalish tarafdorlari (S.Xantington, Dj.Nelson, X.Lins va b.) aholi siyosatga jalb etilmaganini, ommaning boshqaruvga loqaydligini, ijtimoiy-siyosiy institutlar (fuqarolik jamiyati institutlari ham) nafaolligini jamiyatda modernizatsiya hamda transformatsiyalashuvning asosiy muammolaridan biri sifatida izohlaydi. Ularning fikricha, o'tish davrida kuchli avtoritar tuzum transformatsiya jarayoni uchun zarur manbalarni yaratib beradi, milliy birlikni saqlab qolish, bozor munosabatlariga o'tishni ta'minlab berishi mumkin. Liberal yo'nalish tarafdorlari (R.Dal, G.Almond, L.Pay va h.) zamonaviy jamiyat barpo etishni fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtiroki asosiga qurilgan ochiq boshqaruvni shakllantirish imkoniyatlarini yaratishi bilan bog'lashadi. Uchinchi bosqich (80–90 yillar)ga xos nazariya mualliflari an'analarning yangi rivoji u yoki bu jamiyatdagi hukmron ijtimoiy, siyosiy, madaniy xususiyatlarga bog'liq ekanligini inkor etishmaydi.

Taniqli sotsiolog, siyosatshunos D.Nort zamonaviy fuqarolik jamiyati institutlari transformatsiyalashuvini obyektiv holat sifatida baholab, “har qanday davlat va jamiyatdagi institutlar mana shu jamiyatdagi boshqaruv iyerarxiyasini belgilash bilan bir qatorda, siyosiy qarorlar qabul qilishdan tortib, fuqarolarni jamiyat ijtimoiy munosabatlariga jalb etishdan iborat” [13, – C.68] degan edi.

Davlatchilik bilan bog'liq rivojlanish evolyutsiyasida fuqarolik jamiyati institutlari transformatsiyalashuvi jarayoni har qanday ko'rinishdagi, maqomdagi davlatlar va jamiyatlar rivojida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib kelgan. Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati davomidagi o'zgarishlarni (transformatsiyalashuv) ikki asosiy xususiyat bilan ifodalanadi:

- 1) doimiy (regulyativ);
- 2) bosqichma-bosqich (evolyutsion).

Yuqoridagi ilmiy nazariyalardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, dunyodagi har bir davlat va jamiyat hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlar, rivojlanish jarayonlari muayyan hududdagi qonun-qoidalar hamda mavjud fuqarolik jamiyati institutlari asosidagi boshqaruvning samarasi bilan uzviy bog'liqdir. Bugun davlatlar rivojida kuzatilayotgan siyosiy institutlarning o'rni va roli hamda undagi transformatsiyalashuv xususiyatlarini quyidagi belgilar asosida kuzatish mumkin:

a) fuqarolik jamiyati institutlari transformatsiyalashuvini jamiyatdagi fuqarolar qarashlarining o'sib borishi oqibatida kuzatilgan yangi munosabatlarga ehtiyoj tarzida navbatdagi bosqich sifatida talqin etish mumkin;

b) fuqarolik jamiyati institutlari transformatsiyalashuvi davlatlar va jamiyatlarda (ayniqsa, demokratik tamoyil asosidagi) zamonaviylik munosabatlariga moslashish orqali o'z barqarorligini ta'minlashga bog'liqdir;

v) globallashuv va axborot almashinuvining shiddatli ko‘rinishlari yuzaga chiqayotgan bir pallada fuqarolik jamiyati institutlari an’anaviy negizlarini transformatsiya qilmasdan turib, tadqiq etib bo‘lmaydi. Bu esa sotsiologiya fanida ijtimoiy jarayonlarning dinamikasini talqin etishda, farqlashda alohida ahamiyat kasb etadi;

g) boshqaruvning qanday shakliga ega bo‘lmasin barcha davlatda institutlar qaysidir ma’noda zamonaviylik xususiyatlari ta’sirida takomillashadi va transformatsiyalashadi. Bu inkor etib bo‘lmaydigan siyosiy aksiomadir;

d) fuqarolik jamiyati institutlari transformatsiyalashuvi jamiyatda zamonaviylashuv munosabatlari uchun imkoniyatlar yaratish manbai.

Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlarning transformatsiyalashuvi doimiy, uzluksiz davom etadigan ijtimoiy-siyosiy jarayondir. Shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarining transformatsiyalashuvi jarayoni uzoq muddatli, strategik ahamiyatga ega ijtimoiy jarayondir. Bunda davlat va jamiyat munosabatlarida yangi tendensiya – boshqaruv samaradorligi, faol va siyosiy pozitsiyasiga ega bo‘lgan fuqarolar toifasi, yangi va maqbul siyosiy tizim shakllanishi kuzatiladi. Fikrimizcha, fuqarolik jamiyati institutlari transformatsiyalashuvi, avvalo, fuqarolarning aynan davlat va jamiyatga bo‘lgan ishonchi, munosabati darajasiga bog‘liq. Shuningdek, har bir institut o‘z faoliyati nuqtai nazaridan rivojlanish (taraqqiyot) hamda tanazzul imkoniyatiga ega. Bunda fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyatdagi ta’sir xususiyatlarini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etishini ta’kidlab o‘tish joiz.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan islohotlardan bosh maqsad – insonning erki, sha’ni, qadr-qimmatini va manfaatlarini himoya qilish, shaxs salohiyatini yuzaga chiqarishga yo‘naltirilgan. Bu an’anaviylikni yangilanib, zamon ruhiga, demokratiya talablari va tamoyillari asosida o‘zgarib borayotganligini, shunga mos demokratik, fuqarolik jamiyati qurilayotganligini bildiradi.

Zero, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda “Demokratik islohotlar yo‘li biz uchun–yakkayu yagona va eng to‘g‘ri yo‘ldir” [14, – B.21]. Bu tabiiy-qonuniy jarayon bo‘lib, jamiyat taraqqiyotida an’anaviylikning ijtimoiy institutlari bilan bog‘liq tuzilmalaridagi yangi davr va sharoitda modernizatsiyalashib borishini umumiy qonuniyat ekanligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham an’anaviylik va zamonaviylik, transformatsiyalashuv munosabatlarini to‘g‘ri tushunish, xususan, fuqarolik jamiyati institutlarining rolini aniq va to‘g‘ri talqin etish muhim ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy va mafkuraviy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Мокшин В.К., Ипатов Ю.Л. Трансформация политической власти в современной России часть 1. Общие тенденции и региональные особенности//Вестник Поморского университета. Серия «Гуманитарные и социальные науки». 2006. № 1(9). – С. 59-67.
2. Быков И.А. Сетевая политическая коммуникация: Теория, практика и методы исследования: монография. - СПб.: ФГБОУ ВПО «СПГУТД», 2013. – С. 200.
3. Ўзбекистонда политологиянинг янги босқичи // Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент: «Complex Print», 2022. – Б. 125.
4. Мокшин В.К., Ипатов Ю.Л. Трансформация политической власти в современной России часть 1. Общие тенденции и региональные особенности // Вестник Поморского университета. Серия «Гуманитарные и социальные науки». 2006. № 1(9). – С. 59-67.
5. Быков И.А. Mass media и режимные трансформации на постсоветском пространстве: Россия, Белоруссия и Украина в 1991-2011 гг.: монография. – СПб. ФГБОУ ВПО «СПГУТД», 2015. – С. 9.
6. Жумаев Р. Политическая система Республики Узбекистан: становление и развитие. – Т.: Фан, 1996. – С. 4.
7. Rostow W.W. The stages of economic growth: A non-communist manifesto-Cambridge press, 1960. – P. 4-16.

8. Словарь терминов и понятий по обществознанию. Автор-составитель А.М.Лопухов. 7-е изд. переб. и доп. – М., 2013, – С. 219-220.
9. Вебер Политика как призвание и профессия / М.Вебер – «РИПОЛ Классик», 1919 – (Librarium). – С. 29.
10. Смелзер Н. Социология. – М.: Феникс, 1994. – С.79.
11. Растоу Д. Переходы к демократии: попытка динамической модели // Политические исследования. 1996. №5. – С.5-15.
12. Гельман В.Я. «Transition» по-русски: концепции переходного периода и политическая трансформация в России: 1989-1996 // Общественные науки и современность. 1997. № 4. – С. 64-81.
13. Норт Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики. – М., 1997. – С. 68.
14. Мирзиёев Ш. “Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 21.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000